

«QUBLA ARAL BOYI ARXEOLOGIYASI, ETNOGRAFIYASI, DEREKTANIWI, TARIYXNAMASI HÁM TARIYXINIŃ AKTUAL MÁSELELARI» ATAMASINDA XALIQ ARALIQ ILIMY-TEORIYALIQ KONFERENCIYA MATERIYALLARI

XX ASR 40-80-YILLARIDA QORAQALPOG‘ISTONDA ALOQA SOHASINING KENGAYISHI

Dauletmuratov Rashit Begimbaevich

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Nukus
“Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik
litseyi tarix fani o‘qituvchisi*

Bugungi kunda aloqa tizimi kundalik hayotimizda qanchalik darajada muhim bo‘lsa, insoniyat tarixida ham ancha qiyinchiliklar bilan taraqqiy etganiga tarixning o‘zi guvohdir. O‘rta Osiyoning butun hududida faqat bitta, eng qadimiy aloqa turi – pochta aloqasi oddiy ko‘rinishda faoliyat yuritgan. Pochtachilarning vazifalarini davlatning piyoda xat tashuvchilari yoki ot jo‘natuvchilari va xabarchilari, ya’ni «chopar» yoki «elchi» deb atalgan kishilar bajargan. Oddiy xalq ularning xizmatlaridan foydalana olmadi, ular davlat hokimiyati vakillariga, yirik xon va boylarga, shuningdek, savdo zodagonlariga xizmat qildilar. Oddiy xalq xabarlarini yetkazish, asosan, og‘zaki xabarlar orqali amalga oshirilgan, ular odamlar gavjum joylarda: choyxonalarda, bozor maydonlarida va masjidlarda yodlangan va «og‘izdan og‘izga» o‘tgan.

XIX asrda pochta aravalari ko‘pincha pochta jo‘natmalarini yetkazib berish uchun ishlatilgan. Shaharlar o‘rtasida pochta stantsiyalari bo‘lib, ularda otlar va aravalar tayyor holatda saqlanadi. Asr oxirida boshlangan temir yo‘llarning qurilishi tezkorlik va xavfsizlik tufayli pochta aloqasi sifatini oshiradi. Bu, o‘z navbatida, xizmat ko‘rsatishning yangi turlari – qimmatli xatlar, posilkalar jo‘natish, pul o‘tkazmalari paydo bo‘lishiga olib keladi. XX asrga kelib aloqa tizimida telefon va telegraflar liniyalari tortilib, birin-ketin muammolarga yeshim topila boshladi.

O‘zbekiston KP(b) MK va O‘zSSR Xalq Komissarlari Sovetining qarori bilan 1943-yilning birinchi yarmida 500 km uzunlikdagi telefon liniyasi qurilib, uchta kuchaytirish nuqtasi o‘rnatilib foydalanishga topshirildi. Qiyinchiliklarga qaramay, qurilish qisqa muddatda yakunlandi va eng chekka Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston ASSR Toshkent bilan telefon aloqasiga ega bo‘ldi[3].

Gazeta-jurnallar, qimmatli xatlar, posilkalar jo‘natmalarini yetkazish vaqti havo transporti orqali yuborilishi XX asrning 40-yillarida ancha rivojlandi. Masalan, O‘zbekiston fuqaro havo floti direksiyasi uchuvchilari Kashitsin, Lixovodin, Bocharov va boshqalar «Pravda» gazetasining matritsasini har kuni Moskvadan samolyotlarda yetkazib berishadi. Gazeta Toshkentga Moskvada chiqqan kuni yetib keladi. Nukus,

«QUBLA ARAL BOYI ARXEOLOGIYASI, ETNOGRAFIYASI, DEREKTANIWI, TARIYXNAMASI HÁM TARIYXINIŃ AKTUAL MÁSELELERI» ATAMASINDA XALIQ ARALIQ ILMIY-TEORIYALIQ KONFERENCIYA MATERIYALLARI

Urganch, To‘rtko‘l, Mang‘it, Xazorasp abonentlariga «Pravda» oldinlari 12-15 kunda yetib kelsalar, endi ular Moskvada chiqqanidan so‘ng, ikkinchi kuniyoq oladigan bo‘ldi[5].

Qoraqalpog‘iston ASSRda ham aloqa sohasi urushdan keyin rivojlangan. Nukus shahrida telefon aloqasi yer osti kabeli yotqizilgan holda qayta tiklandi. 1950-yil aprel oyida 460 ta 12 ta, 1954-yilda esa 200 ta raqamga ega takomillashtirilgan tipdagi yangi telefon stansiyasi ishga tushirildi, bu avtonom respublika poytaxtining telefon tarmog‘ini 25,7 foizga oshirish imkonini berdi. Shaharlarda taksofonlar(telefon-avtomat) o‘rnatildi. 1956-yilda Nukusda 3 ta pochta bo‘limi bo‘lgan[4].

1962-yil yanvar oyida Respublika Kompartiyasi Markaziy Komiteti byurosining majlisida «O‘zSSR Aloqa vazirligi ishi to‘g‘risida»gi masala alohida ko‘rib chiqilishi aloqa sohasini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Qabul qilingan qarorda ijobiy jihatlar bilan bir qatorda Aloqa vazirligi faoliyatidagi jiddiy kamchilik ham qayd etildi. Xususan, aloqa korxonalarini iqtisodiyotning o‘sib borayotgan ehtiyojlari va xalqning madaniy ehtiyojlarini qondirmayotgani ta’kidlandi. Samarqand va Xorazm viloyatlari, Qoraqalpog‘iston ASSR, shuningdek, Andijon shahrida shaharlararo aloqaning rivojlanishi xalq xo‘jaligi va aholi ehtiyojlaridan keskin orqada qoldi. Sohadagi qator korxonalarining ish sifati yuzasidan jiddiy fikr-mulohazalar bildirildi[1]. Masalan 1960-yillarning boshida Qoraqalpog‘istondagi 606 maktabning faqat 150 tasiga telefon tortilgan edi[2].

Soha ishini yaxshilash, moddiy-texnika bazasini kengaytirish yo‘lida turli qiyinchiliklarni yengib o‘tib, respublika signalchilari hisobot davrida ijobiy natijalarga erishdilar. Masalan, Qoraqalpog‘iston ASSRda 16,5 mingdan ortiq, jumladan, qishloq joylarda 10 mingga yaqin telefon apparatlari o‘rnatildi, Nukus, To‘rtko‘l, Beruniy ko‘chalarida 300 dan ortiq taksofonlar paydo bo‘ldi. Muxtor respublika poytaxtida 64 ta shaharlararo pullik telefonlar o‘rnatildi, shu vaqt ichida shaharlararo telefon liniyalari uzunligi 4 barobarga oshdi, 18 ta aloqa shoxobchalari ochildi. Mang‘it, Xo‘jayli, Bo‘ston, Chimboy shaharlarida yangi namunaviy aloqa punktlari binolari foydalanishga topshirildi[7].

1975-yilda Nukusda aloqa texnikumi tashkil etildi. Uning shakllanishi va rivojlanishida Moskva Toshkent aloqa politexnikumi katta yordam berdi. Bu yerda qisqa muddatda o‘n bir laboratoriya, o‘n beshta fan kabinetlari tashkil etildi. Qoraqalpog‘iston Ministrlar Soveti texnikumning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha ko‘plab dolzarb masalalarni hal qildi. Natijada o‘quv binosi, 400 o‘rinli shinam yotoqxona, oshxona barpo etildi. Bunda tayanch korxonalar – Qoraqalpog‘iston va Xorazm ishlab

«QUBLA ARAL BOYI ARXEOLOGIIYASI, ETNOGRAFIYASI, DEREKTANIWI, TARIYXNAMASI HÁM TARIYXINIŃ AKTUAL MÁSELELERI» ATAMASINDA XALIQ ARALIQ ILIMY-TEORIYALIQ KONFERENCIYA MATERIYALLARI

chiqarish-texnika kommunikatsiyalari boshqarmalari tomonidan katta amaliy yordam ko'rsatildi. Bu texnikumni jihozlar bilan ta'minlash, o'quvchilarga amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, bitiruvchilarni maqsadga muvofiq taqsimlashda o'z ifodasini topdi. 1984-yilda texnikumda 524 nafar talaba tahsil olgan bo'lsa, Nukus texnikumi faoliyatining dastlabki o'n yilida 1150 nafar mutaxassis tayyorladi[6].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Очерки истории развития связи в Узбекистане». Тошкент, «Фан», 1991. 93-94 стр.
2. Камалов К. «Ел хызметинде». 2018-жыл, 322-б.
3. ЦГА УзССР. ф. 2007, оп. 2, д. 637, л. 30—31.
4. ПА Каракалпакского ОК КПУз, ф.30, оп.15, д.242, л.213, 214.
5. «Советская Каракалпакия», 1948, 18 июля.
6. «Советская Каракалпакия», 1984, 9 июня.
7. «Советская Каракалпакия», 1985, 11 сентября.